



YAKKA INSEKTITSIDLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Shakirova Gavkharkhan Nazirkulomovna

PhD

Fergana State University

Yuldashova Muattarkhan Pulatovna

PhD

Fergana State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11295872>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-May 2024 yil

Ma'qullandi: 22-May 2024 yil

Nashr qilindi: 25-May 2024 yil

KEY WORDS

insecticide, analogue drugs, toxin, cannibalism, glass cylindrical test tube.

ABSTRACT

insektitsid, analog-dorilar, toksin, kanibalizm, shisha slindrik probirka.

Odatda, G'o'za tunlamiga qarshi ishlatish uchun, turli kimyoviy sinflarga oid u yoki bu insektitsidni ishlatish tavsiya qilinadi. Bularning 2017 yilga qadar soni, ta'sir etish modda birligiga qarab – 26 tacha edi, ammo tavsiya etilgan analog dorilarning nomi 150 taga yetadi (Ro'yxat, 2016). Shunga qaramasdan, insektitsidlarning yangilari, analog-dorilar hamda samarasini oshirish ustida tadqiqotlar davom etmoqda.

Biz 2019- 2020 yillar mavsumlarida birqator insektitsidlarni G'o'za tunlamiga qarshi sinab, baho berdik. Jumladan, laboratriya sharoitlarida ko'paytirilgan G'o'za tunlamining kichik yoshdagi qurtlariga qarshi laboratriya tadqiqotlarini o'tkazdik. Faqat shu yo'l bilan har qaysi dorining toksikologik xususiyatini o'rganib, yuqori samara oladigan ishlov o'tkazish muddatlarini belgilab berish mumkin. Laboratriya sinovlari Petri likopchasi, yoki shisha silindrik probirkalarda individual (yakka-yakka joylashtirib) o'tkazildi, chunki hasharot qurtlarida kannibalizm avj olgan. Har bir variantda 10 tadan qurt olinib, ishlov berilgan ozuqa bilan ta'sir o'tkazildi. Ozuqa (shona, gul, ko'sakcha, parrak qilib kesilgan makka so'tasi va b.) dori eritmasiga cho'ktirib olinib, silqitiladi, so'ng har 1 qurtga taklif qilinadi. Kuzatuvlar keyingi kunlarda har 24 soatdan keyin o'tkazildi. Beshta yangi dori, andoza hamda nazoratdagi (dorisiz) qurtlarga nisbatan o'rganildi (1-jadvalga qarang). Natijalar shuni ko'rsatdiki, kichik yosh qurtlarga qarshi Sapportdan tashqari barcha sinalgan dorilar 100% lik samara ko'rsatdi. Tajribada qo'llanilgan dorilar kunlar bo'yicha quyidagi samaradorlikka e erishildi Sapport, 10% s.e. 1-2 kunlar 0%, 3-kun 55,5%, 4-6 kun) 50,0%, Alfaseyv, 20% em.k 1-kun 60,0% 2 kun 100%, Killer Ekstra, 10% em. k.1-kun 50,0% 2-kun 55,5% 3-kun 66,6%, 4-kun 75,0%, 6-kun 100%, Entovant PRO, 30% em.k. 1-kun 90,0%, 2-kun 100% Emamek, 5,7% WDC 1-kun 90,0%, 2-kun 100%, Surrender, 5% s.e.g. (andoza) 1-kun 90,0%, 2-kun 100% natija olindi. Bularning orasida eng samaralilari istiqbolli karbamatlar sinfiga kiruvchi Alfaseyv, hamda oksadiazinlardan – Entovant Pro va emamektinlardan – Emamek. Sintetik piretroidlardan Killer Ekstra (Karate) yuqori samara ko'rsatgan bo'lsada, bu 6 kunga cho'zildi.

1-jadval

G'o'za tunlamining kichik (II-III) yosh qurtlariga insektitsidlarning ta'siri
Laboratoriya tajribasi, Toshloq tumani, Laboratoriya populyatsiyasi, 2020 y.

№	Variantlar	Ta'sir etuvchi moddasi	Dorilarning sarflanish miqdori, l (kg)/ga	Tirik qurtlar soni, dona					Samaradorlik, % kunlarga:					
				Ishlov gacha	Zaharlangan ozuqa yeganidan keyin, kunlarga:					1	2	3	4	6
					1	2	3	4	6					
1.	Sapport, 10% s.e.	zetatsipermetrin	0,3	10	10	9	4	4/3*)	4/4	0	0	55,5 ±4,2	50,0 ±5,3	50,0 ±3,2
2.	Alfaseyv, 20% em.k.	Metomil	2,0	10	4	0	-	-	-	60,0	100	-	-	-
3.	Killer Ekstra, 10% em.k.	lyambdatsigalotrin	0,25	10	5	4	3	2	0	50,0	55,5 ±4,5	66,6 ±5,7	75,0 ±2,6	100
4.	Entovant PRO, 30% em.k.	Indoksakarb	0,2	10	1	0	-	-	-	90,0	100	-	-	-
5.	Emamek, 5,7% WDC	emamektin benzoat	0,35	10	1	0	-	-	-	90,0	100	-	-	-
6.	Surrender, 5% s.e.g. (andoza)	Emamektin Benzoat	0,35	10	1	0	-	-	-	90,0	100	-	-	-
7.	Nazorat (dorisiz)	-	-	10	10	9	9	8	8/8	-	-	-	-	-

*) – 4-qurt, 3-g'umbak.

Laboratoriya sharoitlarida olingan natijalar Toshloq tumanidagi "Soxibjon-MMM" fermer xo'jaligi dalalarida 2020 yili o'tkazgan amaliy tajribalarimizda tasdig'ini topdi. Bu yerda ham Emamek, Alfaseyv va Entovant PRO o'tkazgan tajribamizda (ilmiy-asoslangan muddatlarda) g'o'za tunlamiga qarshi eng yuqori va davomli samaradorlikni ko'rsatdi; Sapport ning samaradorligi past (qoniqarsiz) bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasida ishlatish uchun ruxsat etilgan o'simliklarni himoya qilish vositalari ro'yxati. – 2016.
2. Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. – Toshkent, 2004. – 103 b.
3. Xo'jaev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish hamda agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: "Navro'z", 2015. – 564 b.
4. Xo'jaev Sh.T., Shokirova G.N. G'o'za tunlamiga qarshi kurash usulining samaradorligi //O'simliklar himoyasi va karantini. – 2015. - №1. – B. 35-37.
5. Xo'jaev Sh.T., Yuldashev F.E., Shokirova G.N. Uyg'unlashgan himoya qilish tizimining ustunligi //Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. – 2017. - №1. - B.24-26.
6. Xo'jaev Sh.T., Shokirova G.N., Mirzaeva S., Yo'ldoshev F. Uvatlarda oldini olish ishlovini o'tkazishning zararkunandalarga qarshi samaradorligi //Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali. – 2018. - №6. – B. 21-23.
7. Ш.И. Маматожиёв, М.А.Мирзаева, Г.Н.Шокирова Влияние технологии допосевной обработки на содержание влаги в почве //Универсум:технические науки: научный журнал. – Москва, 2021. - №6(87). – С.46-49.



INNOVATIVE
ACADEMY